



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA SINGAPUR METODIKASI VA KOMPLAYENS – NAZORATI

UMARALIYEV HOJIAKBAR YODGORJON O'G'LI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YURISPURIDENSIYA 1-KURS

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17320848>

ARTICLE INFO

Received: 1st October 2025

Accepted: 5th October 2025

Published: 10th October 2025

KEYWORDS

korruptsiya, rotatsiya,
byurokratika, prezumpsiya,
siyosiy iroda, halollik, jamiyat
tafakkuri, nol bag'rikenglik
tamoyili

ABSTRACT

Ushbu maqolada Singapur davlatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatli tajribasi hamda zamonaviy davlat boshqaruvi va korporativ faoliyatda korrupsiyaga qarshi "Komplayens – nazorat" tizimining ahamiyati tahlil qilinadi. Singapurning mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida yuzaga kelgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va keng tarqalgan korrupsiyaga qarshi sobiq Bosh vazir Li Kuan Yu rahbarligida joriy etilgan qat'iy siyosiy islohotlar, mustaqil nazorat organlari, kuchli huquqiy bazalar va shaffof boshqaruv tamoyillari asosida samarali kurashish modeli yaratildi. Shu bilan birga, maqola "Komplayens – nazorat" tizimining davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiya xavfini oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rish va xalqaro hamda milliy qonunchilik asosida samarali boshqaruvni ta'minlashdagi roli yoritilgan. Ushbu tizim, o'z navbatida, tashkilotlarda shaffoflikni oshirish, xodimlarda munosabatni shakllantirish va korrupsiyaga qarshi kurashda milliy va xalqaro standartlarga muvofiq amaliy model sifatida xizmat qiladi. Singapurning tajribasi va "Komplayens – nazorat" tizimi boshqa davlatlar uchun samarali korrupsiyaga qarshi strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.

"Agar biz boshqarayotgan davlat hokimiyati ko'pchilikning hayotini yaxshilash emas, kamchilikning cho'ntagini qappaytirish payida bo'lsa,

ahvolimiz chatoq bo'ladi"

Li Kuan Yu

Korrupsiya — jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Bu illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratadi

Korrupsiya (lotincha: *corrumpō* – aynish, poraga sotilish) — mansabdor shaxsning oʻz mansabi boʻyicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiisteʼmol qilishidan iborat amaliyot. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari juda qadimga borib taqaladi; bu hol qabilada maʼlum mavqega ega boʻlish uchun qabila sardorlariga sovgʻalar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Oʻsha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta toʻsiq ekanligini koʻrsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi.

Qadimgi davlatlarda, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan maʼlum. Chunki bu holat davlatning obroʻsiga katta putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda: „Sovgʻalarni qabul qilma, chunki sovgʻa koʻrni koʻradigan qiladi va haqiqatni oʻzgartiradi“ deyilgan boʻlsa, Qurʼoni Karimda: „Boshqalarning mulkini nohaq yoʻl bilan olmagiz va boshqalarga tegishli boʻlgan narsalarni olish uchun oʻz mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar“ deyilgan.

Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashning boshlanishi

1965 yilda mustaqillikka erishgan paytda Singapur korrupsiya botqogʻida edi. Mamlakat oʻta ogʻir iqtisodiy kunlarni boshdan kechirar, jamiyatda qonunsizlik hukm surardi. Oʻsha vaqtdagi bosh vazir Li Kuan Yuning qatʼiyati tufayli XX asr oxiriga borib Singapurda korrupsiya keskin kamaydi va mamlakat rivojlangan davlatga aylandi.

Mustaqillikka arafasida Singapurda bir tomondan Britaniya mustamlakachiligi paytida yozilgan qonunlar zaif, ikkinchi tomondan huquqni muhofaza qiluvchi organlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga qodir emasdi. Amaldorlarning aksariyati korrupsiyaga ruju qoʻygandi, aholi koʻpchiligi esa savodsiz boʻlib, oʻz huquqlarini himoya qila olmasdi.

Asosiy choralar va siyosiy iroda

Korrupsiyaga qarshi kurash boshlagan birinchi hukumat qator muammolarga duch keldi. Qonun ochiqchasiga zaif edi, koʻplab korrupsion jinoyatlar qonun doirasidan chetda qolar, tegishli organlar esa oʻz vazifasini samarali ado etish uchun zarur vakolatga ega emasdi.

Singapur avvalo korrupsion harakatlar sodir etish imkoniyatini qisqartirish yoʻlidan bordi:

- amaldorlarning harakatlari tartibga solindi;
- mustahkam korrupsion aloqalar shakllanmasligi uchun ularning rotatsiyasi yoʻlga qoʻyildi;
- byurokratik toʻsiqlar bartaraf etildi;
- davlat xizmatchilarining yuqori odob-axloq standartlariga rioya qilishi ustidan kuchli nazorat oʻrnatildi.

Korrupsiya holatlarini tergov qilish byurosi (CPIB) ulkan rol oʻynadi. Fuqarolar Byuroga davlat xizmatchilarining harakatlari ustidan shikoyat bilan murojaat qilishi va ziyonni undirib berishni talab qilishi mumkin edi. Korrupsiya holatlari haqida xabar beruvchilarning himoyasi va nomi yashirin qilishi taʼminlandi.

Shuningdek, korrupsiya harakatlari uchun jinoiy jazo kuchaytirildi, sud tizimi mustaqilligi ta'minlandi, sudyalarning maoshlari keskin oshirildi va ularning ijtimoiy maqomi mustahkamlandi. Pora berganlik yoki tergovda ishtirok etishdan bo'yin tovlanlik uchun sezilarli iqtisodiy jazo joriy etildi.

Bojxona xizmati va boshqa ko'plab davlat tashkilotlarida xodimlarni yoppasiga ishdan bo'shatishgacha bo'lgan qattiq choralar ko'rildi. Shu choralar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, davlat xizmatchilarining maoshini oshirish va malakali ma'muriy kadrlarni tayyorlash orqali amalga oshirildi.

Aybdorlik prezumpsiyasi va kengaytirilgan tekshiruvlar

1960 yildagi qonun bilan Singapurda barcha davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsiya bo'yicha **aybdorlik prezumpsiyasi** joriy etildi. Agar xizmatchi daromadiga mos kelmaydigan xarajatlarga qo'l ura yoki mol-mulkka egalik qilsa, u o'z harakatining qonuniy ekanini isbotlamaguncha aybdor hisoblanadi.

Bundan tashqari, barcha amaldorlar va ularning oila a'zolari daxlsizlik huquqidan mahrum qilindi. Byuro agentlari amaldorlar, ularning bolalari, xotini, qarindoshlari va hatto do'stlariga tegishli bank hisoblarini tekshirish huquqiga ega edi. Shu bilan, agar mansabdor va uning oilasining xarajatlari qonuniy topilayotgan daromaddan yuqori bo'lsa, bu Byuroga tergovni boshlash uchun yetarli edi. Shaxsan Li Kuan Yu va uning oila a'zolari ham bir necha bor tekshirildi, biroq korrupsiyaga aloqadorligi aniqlanmadi.

"Komplayens – nazorat" tizimi

Korrupsiyaga qarshi "Komplayens – nazorat" tizimi zamonaviy davlat boshqaruvi va korporativ faoliyatda korrupsiya holatlarini oldini olish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim davlat organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatini xalqaro standartlar va milliy qonunlarga muvofiq tashkil etish orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurashishni ta'minlaydi.

"Komplayens – nazorat" tizimi korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash, ularga qarshi profilaktik choralar ko'rish, qonunbuzarliklar haqida xabar berish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Tizimning xalqaro prinsiplaridan biri – shaxsiy namuna bo'lib, rahbariyatning korrupsiyaga nisbatan murosasizligi va shaffof faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega.

Tizim uch shaklda joriy etiladi: ixtisoslashgan, moslashgan va aralash modellari. Ularning har biri o'zining tashkilotdagi roli va vazifalariga ko'ra farqlanadi, biroq barchasi korrupsiyaga qarshi kurashish va tashkilotning imidjini oshirishga qaratilgan.

Milliy qonunchilikda "Komplayens – nazorat" tizimining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni va prezident farmonlari bilan mustahkamlangan. Ushbu hujjatlar davlat xizmatchilarining korrupsiya holatlari haqida xabar berish majburiyatini belgilaydi va ichki nazoratni kuchaytiradi.

Ichki nazorat tuzilmasining muhim qismi bu — komplayens xodimi bo'lib, u korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, xodimlarni o'qitish va nazoratni ta'minlash bilan shug'ullanadi. Ushbu tizim tashkilotlarda korrupsiyaviy xavflarni oldini olish, xodimlarda murosasiz munosabatni shakllantirish va faoliyatning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, korrupsiyaga qarshi “Komplayens – nazorat” tizimi davlat va xususiy sektor uchun korrupsiya xavfini kamaytirish, xalqaro standartlarga javob berish hamda samarali mexanizmlar yaratilishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Singapur davlatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi tajribasi, ayniqsa sobiq Bosh vazir Li Kuan Yu boshchiligidagi amalga oshirilgan qat’iy siyosiy islohotlar, mustaqil nazorat organlari va kuchli huquqiy asoslarning yaratilishi davlat boshqaruvida shaffoflik va javobgarlikni ta’minlashda muhim omil ekanligi isbotlandi. Singapur misoli ko’rsatadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurash tizimi nafaqat qonuniy mexanizmlarga, balki davlat xizmatchilarining axloqiy me’yorlari va boshqaruvdagi halollik tamoyillariga asoslanishi zarur.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi “Komplayens – nazorat” tizimi davlat va xususiy sektorning faoliyatida korrupsiya xavfini kamaytirish, profilaktik chora-tadbirlar ko’rish hamda xalqaro va milliy qonunchilikka muvofiq shaffof boshqaruvni ta’minlashda asosiy vosita sifatida qabul qilinmoqda. Bu tizim, xususan, rahbariyatning murosasizligi va shaffoflik prinsiplariga qat’iy amal qilishini ta’minlab, tashkilot ichida murosasiz munosabatni shakllantiradi hamda korrupsiyaga qarshi ijtimoiy muhitni mustahkamlaydi.

Shu tariqa, Singapurning muvaffaqiyatli modeli va “Komplayens – nazorat” tizimi nafaqat korrupsiya holatlarining oldini olishda, balki davlat boshqaruvida ishonch va axloqiy qadriyatlarni tiklashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu ikki jihat korrupsiyaga qarshi kurashda barqaror natijalarga erishish uchun o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, boshqa davlatlar uchun ham amaliy va samarali model sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2021/12/07/singapur-korrupsiyani-qanday-yengdi?>
2. <https://digitalcommons.law.umaryland.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1188&context=mscas>
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi [Matn]:o`quv qo`llanma / Niyozova Salomat Saparovna.- TDYU nashriyoti
4. Jon S.T. Quah, "Curbing Asian Corruption: An Impossible Dream?" Current History, Vol. 105, No. 690 (April 2006), p. 179.
5. Davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to`qnashuvi [Matn]:o`quv qo`llanma / Maxmudov Firuz Baxtiyor o`g`li. - TDYU nashriyot